



«TASDIQLAYMAN»

Toshkent shahar statistika  
boshqarmasi boshlig'i

L. Mirsoatov

May 2024-y.

**Toshkent shahar statistika boshqarmasining Statistika faoliyatini tashkil etish  
va yig'ma axborot-tahliliy ishlar bo'limi to'grisida  
NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizom Toshkent shahar statistika boshqarmasi Statistika faoliyatini tashkil etish va yig'ma axborot-tahliliy ishlar bo'limining (keying o'rinlarda bo'lim deb ataladi) maqomi, asosiy vazifa va funksiyalari, huquq va majburiyatlari, shuningdek, uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Bo'lim O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-114-son qaroriga muvofiq tashkil etilgan va Toshkent shahar statistika boshqarmasining (keyingi o'rinlarda boshqarma deb ataladi) bo'limi hisoblanadi.

3. Bo'lim o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi qonuni va boshqa qonunlarga, Oliy Majlisning normativ qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, Statistika agentligining buyruqlari, qarorlari, topshiriqlari va ko'rsatmalariga, "Toshkent shahar statistika boshqarmasi to'g'risida"gi Nizomga, mazkur Nizomga, shuningdek boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

4. Bo'lim statistika faoliyatini tashkil etish va yig'ma axborot-tahliliy ishlar bo'yicha boshqarmaning tarmoq va tuman statistika bo'limlari bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

5. Bo'lim o'z faoliyatini boshqarma boshlig'i rahbarligida amalga oshiriladi.

Bo'lim o'z vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha Toshkent shahar statistika boshqarmasi boshlig'iga bo'ysunadi.

**2-bob. Bo'limning vazifalari va funksiyalari**

6. Quyidagilar bo'limning asosiy vazifalari hisoblanadi:

rasmiy statistika sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, rasmiy statistikani rivojlantirish masalalari bo'yicha faoliyatni milliy statistika tizimi doirasida muvofiqlashtirish, statistika uslubiyotlari va xalqaro tavsiyalarga muvofiq bo'lgan statistika kuzatuvlari shakllarini ishlab chiqish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bo'yicha takliflar kiritish;

foydalanuvchilar ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan iqtisodiy, demografik, ijtimoiy, moliyaviy, ekologik hamda boshqa xususiyatga ega dolzarb statistika ma'lumotlarini yig'ish, ularni qayta ishlash, umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlash jarayonlarini tashkil etish;



xalqaro darajada umumqabul qilingan rasmiy statistikaning asosiy prinsiplari asosida sifatli va ishonchli statistika ma'lumotlarini shakllantirish, ularning shaffofligi va oshkoraligini oshirishga qaratilgan ta'sirchan mexanizmlarni amaliyotda qo'llash;

7. Bo'lim o'z zimmasiga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) *rasmiy statistika sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, rasmiy statistikani rivojlantirish masalalari bo'yicha faoliyatni milliy statistika tizimi doirasida muvofiqlashtirish, statistika uslubiyotlari va xalqaro tavsiyalarga muvofiq bo'lgan statistika kuzatuvlari shakllarini ishlab chiqish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish sohasida:*

xalqaro tavsiyalar, shu jumladan sifatni boshqarishning milliy modellari (GSIM, GSBPM, GAMS0 modellari asosida) hamda xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini joriy etishni ta'minlaydi;

Statistika ishlab chiqarish dasturi, boshqarmaning ish rejalarini o'z vaqtida shakllantirishida ishtirok etadi;

O'zbekiston Respublikasi rasmiy statistika tizimini rivojlantirishning maqsadli dasturlarini, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarining ijrosini ta'minlash yuzasidan joriy va istiqbol rejalarini tayyorlash bo'yicha ishlarda ishtirok etadi;

boshqarma vakolati doirasidagi masalalar bo'yicha tavsiya, qo'llanma va ko'rsatmalar ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amaliyotga joriy etadi;

rasmiy statistikadan foydalanuvchilarning ehtiyojlarini o'rganish asosida statistika kuzatuvlari shakllarini ishlab chiqish, tasdiqlash va amaliyotga joriy etish, statistika kuzatuvlarini o'tkazish usullarini belgilash bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

*b) foydalanuvchilar ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan iqtisodiy, demografik, ijtimoiy, moliyaviy, ekologik hamda boshqa xususiyatga ega dolzarb statistika ma'lumotlarini yig'ish, ularni qayta ishlash, umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlash jarayonlarini tashkil etish sohasida:*

iqtisodiy, demografik, ijtimoiy, moliyaviy, ekologik hamda boshqa xususiyatga ega statistika ma'lumotlarini umumlashtirish, tahlil qilish, saqlash, tarqatish va e'lon qilish ishlarini amalga oshiradi;

milliy statistika tizimiga kiruvchi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari bilan birgalikda statistika dasturlarining boshqarmaga tegishli qismlari bo'yicha bajarilishini ta'minlaydi;

olingan statistika ma'lumotlarining maxfiyligini, birlamchi hisobot va individual ma'lumotlardan yuridik shaxslarning faoliyatini, boshqa xususiyatlarini yoki miqdor ko'rsatkichlarini rasmiy tasdiqlash maqsadida foydalanishga yo'l qo'ymaslikni, davlat sirlariga ega bo'lgan statistika ma'lumotlarining himoya qilinishini ta'minlaydi;

o'z vakolatlari doirasida statistika organlari faoliyati jarayonlarida olingan xizmat, bank, tijorat sirlarini va boshqa maxfiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan axborotlarni saqlash va himoyalashni ta'minlaydi;

shartnoma asosida rasmiy statistika masalalari bo'yicha pullik xizmatlar, shuningdek, Statistika dasturidan tashqari boshqa xizmatlarni ko'rsatadi hamda ishlarni bajaradi;



O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq boshqarma faoliyati jarayonlarida yuzaga kelgan arxiv hujjatlarini jamlash, saqlash, hisobga olish va ulardan foydalanish ishlarini tashkil etadi;

Toshkent shahri bo'yicha, hududlar va iqtisodiyot tarmoqlari kesimidagi yig'ma statistik va iqtisodiy-tahliliy ko'rsatkichlarni tegishli tarmoq bo'limlari bilan birgalikda tayyorlaydi va e'lon qiladi;

statistik ko'rsatkichlarning tezkorligini, ishonchliligini va xolisligini ta'minlash, ularning qulayligi, oshkoraligi va ochiqligini kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

Toshkent shahrining statistika axborotnomasi, tumanlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari, tumanlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati to'g'risida axborotnomalarning choraklik va yillik statistik va tahliliy materiallarni tayyorlaydi va belgilangan tartibda taqdim etadi;

o'z vakolati doirasida oylik, choraklik va yillik ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish natijalari bo'yicha statistik ma'lumotlarni tayyorlashni ta'minlaydi, shuningdek, tegishli davlat idoralari va boshqa turdagi foydalanuvchilarga belgilangan tartibda taqdim etadi;

xo'jalik yurituvchi subyektlarga ishonchli statistika hisobotlarini taqdim etishda har tomonlama ko'maklashishni ta'minlash bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish, statistik ma'lumotlarni taqdim etish sohasida huquqiy madaniyatini oshirish va xuquqbuzarliklarining oldini olishning ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish;

tuman statistika bo'limlarining xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida profilaktika ishlarini tashkil qilish, hisobot va ijro intizomini ta'minlash bo'yicha choralarni amalga oshirish, Ma'muriy amaliyotini qo'llash borasidagi faoliyatini monitoringini yuritish;

boshqarmaga kelib tushadigan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari, shu jumladan, elektron shakldagi murojaatlarni ko'rib chiqadi va tegishli tarmoq bo'limlari bilan statistik ma'lumotlarni tayyorlash va murojaatchilarga yetkazish ishlarini muvofiqlashtiradi;

yuklatilgan asosiy funksiyalar bo'yicha boshqarma va tuman statistika bo'limlarida bajarilayotgan ishlar holatini doimiy tahlil etib borish va natijalari bo'yicha tezkor axborotlarini muntazam ravishda boshqarma rahbariyatiga kiritib borilishini ta'minlash;

*v) xalqaro darajada umumqabul qilingan rasmiy statistikaning asosiy prinsiplari asosida sifatli va ishonchli statistika ma'lumotlarini shakllantirish, ularning shaffofligi va oshkoraligini oshirishga qaratilgan ta'sirchan mexanizmlarni amaliyotda qo'llash sohasida:*

rasmiy statistika ma'lumotlari rasmiy statistikaning asosiy prinsiplariga rioya etgan holda tayyorlanishi va tarqatilishini ta'minlaydi;

ochiq statistika ma'lumotlarini statistika organlari, boshqarmaning internet resurslari hamda nashrlarida joylashtirish yo'li bilan tarqatadi va barcha foydalanuvchilarga rasmiy statistika ma'lumotlaridan keng foydalanish uchun teng imkoniyatlarni yaratadi;

rasmiy statistika ma'lumotlarining manbalari, ularni tayyorlash usullari, ishonchliligi, shaffofligi, oshkoraligi va sifati to'g'risida foydalanuvchilarni metama'lumotlar yordamida xabardor qilib borish faoliyatida ishtirok etadi;

Statistika ishlari dasturini bajarish monitoringini amalga oshiradi, uning natijalari bo'yicha har oyda bajarilgan ishlar bo'yicha dalolatnoma tayyorlanadi va uni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligiga taqdim etiladi;



har oyda tuman statistika bo'limlari tomonidan statistika hisobotlarni taqdim etish tartibini buzgan huquqbuzarliklarga nisbatan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga muvofiq Ma'muriy choralar qo'llash tartibiga amal qilinishi yuzasidan monitoring qiladi va natijalarini umumlashtirib boshqarmaga va Agentlikka taqdim etadi;

statistika faoliyatini tashkil etish masalalari bo'yicha tuman statistika bo'limlari bilan hamkorlikni tashkil qiladi, shu jumladan joylarga chiqqan holda tuman statistika bo'limlarining hisobot va ijro intizomi monitoringini amalga oshiradi;

boshqarma va tuman statistika bo'limlarida statistika faoliyatini tashkil etish masalalari bo'yicha belgilangan grafik asosida tashkil etilayotgan maqsadli va kompleks o'rganishlarni amalga oshiradi;

Bo'lim belgilangan tartibda o'ziga yuklatilgan boshqa funksiyalarni ham amalga oshiradi.

### **3-bob. Bo'limning huquqlari va javobgarliklari**

**8.** Bo'lim o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

boshqarmaning tarmoq va tuman statistika bo'limlaridan o'ziga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur materiallar va ma'lumotlarni belgilangan tartibda so'rash va olish;

yig'ma ma'lumotlarni tayyorlash va tarqatish samaradorligini oshirish bo'yicha boshqarma rahbariyatiga takliflar kiritish;

boshqarmaning tegishli tarmoq tomonidan Statistika dasturiga asosan taqdim etiladigan statistik ma'lumotlarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini nazorat qilish;

yig'ma ma'lumotlarni tayyorlash va tarqatish sohasida normativ-huquqiy bazani yanada rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash;

o'z vakolati doirasida Statistika dasturiga muvofiq statistik ma'lumotlarni tayyorlash muddatlariga amal qilinishini nazorat qilish;

Statistika dasturi, boshqarma ish rejasining tuzilishi va mazmuni bo'yicha boshqarma rahbariyatiga takliflar kiritish;

bo'lim vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha boshqarmaning tarmoq va tuman statistika bo'limlari bilan hamkorlik qilish.

**9.** Bo'lim quyidagilar uchun javobgar:

O'ziga yuklangan vazifalarni samarali va lozim darajada bajarish;

vakolatiga kiruvchi axborot, tahliliy va boshqa materiallarni yuqori darajada tayyorlash;

rasmiy statistika prinsiplariga amal qilish, ilg'or xalqaro amaliyotiga muvofiq foydalanilayotgan metodikalarini doimiy ravisgda takomillashtirish;

Bo'lim xodimlari tomonidan belgilangan normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq ijro intizomini ta'minlash;

### **4-bob. Bo'limning tuzilmasi**

**10.** Bo'limning tuzilmasi o'z ichiga bo'lim boshlig'i, 2 ta bosh mutaxassisi va 1 ta yetakchi mutaxassislar kiradi.

**11.** Bo'lim boshlig'i, 2 ta bosh mutaxassis va 1 ta yetakchi mutaxassislar boshqarma boshlig'i tomonidan Statistika agentligi bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.



## 5-bob. Bo‘limning faoliyatini tashkil etish

12. Bo‘limning ishi O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi, qonuni, boshqarma tomonidan tasdiqlanadigan Statistika dasturi, Toshkent shahar statistika boshqarmasi to‘g‘risidagi Nizomga, mazkur Nizom, Statistika agentligi direktorining buyruqlari va topshiriqlariga muvofiq, shuningdek Toshkent shahar statistika boshqarmasining ish rejalari, bo‘lim xodimlarning funksional vazifalari asosida tashkil etiladi.

xodimlarning funksional vazifalari bo‘lim boshlig‘i tomonidan bo‘limga yuklangan vazifalardan kelib chiqqan holda tayyorlanadi va boshqarma boshlig‘i tomonidan tasdiqlanadi.

### 13. Bo‘lim boshlig‘i:

Bo‘limga bevosita rahbarlikni amalga oshiradi va mutaxassislarning ishini tashkil qiladi, bo‘limga yuklangan vazifa va funksiyalarning lozim darajada bajarilishi, ijro va mehnat intizomining holati uchun shaxsan javob beradi;

Bo‘limning tasdiqlangan tuzilmasi va shtat jadvaliga muvofiq lavozimlarga tavsiya qilingan nomzodlarga tavsiya qilingan nomzodlar, xodimlarning kasbiy darajasi va ish malakasini oshirish, ularni rag‘batlantirish va jazolash choralari bo‘yicha takliflarni puxta ishlab chiqadi va boshqarma rahbariyatiga ko‘rib chiqish uchun kiritadi;

Bo‘lim xodimlari o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

boshqarmaning yig‘ilishlari va majlislarida, shuningdek boshqarma rahbariyatining topshirig‘iga binoan bo‘lim tasarrufiga kiruvchi masalalar bo‘yicha idoralararo ishchi guruhlar va kengashlar faoliyatida ishtirok etadi;

boshqarma boshlig‘i va uning o‘rinbosarlarining topshiriqlariga muvofiq tahliliy va umumlashtiruvchi materiallarni tayyorlaydi, qo‘yilgan vazifalarni yanada samarali amalga oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilishini ta‘minlaydi;

yig‘ma statistik va tahliliy ma‘lumotlarni shakllantirish bo‘yicha boshqarma tarmoq bo‘limlari boshliqlari va mutaxassislariga maslaxat va uslubiy yordam ko‘rsatadi;

tuman statistika bo‘limlarida hisobot va ijro intizomi holatini joylarga chiqqan holda o‘rganishni tashkil qiladi, o‘rganish natijalari bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilishini va bajarilishini muvofiqlashtiradi;

ish yuritish, berilgan topshiriqlarni bajarilishini nazorat qiladi, xodimlarning rasmiy hujjatlar bilan ishlash va ularni saqlash tartibiga qat‘iy rioya qilinishini ta‘minlaydi;

Boshqarmaning joriy va istiqbol ish rejaloriga muvofiq Boshqarma vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha tahliliy va boshqa materiallarni o‘z vaqtida, tizimli asosda tayyorlanishini ta‘minlaydi;

boshqarmaning tarmoq va tuman statistika bo‘limlarining ma‘muriy amaliyoti qo‘llash, profilaktika ishlari, seminarlar, tajriba almashish, amaliy yordam ko‘rsatish uchun joylarga chiqishni tashkil qilish bo‘yicha faoliyatini muvofiqlashtiradi va monitoringini amalga oshiradi;

bo‘lim xodimlari bilan yuklatilgan vazifalar, kiruvchi xujjatlarni nazorat qilish va tajriba almashish masalalari yuzasidan yo‘riqnoma berish bo‘yicha yig‘ilishlar o‘tkazadi;

xodimlar tomonidan davlat va tijorat siriga rioya qilishini hamda bo‘limga kiruvchi materiallarni va bo‘limdan chiquvchi materiallarning nusxalarini saqlanishini ta‘minlaydi;

bo‘lim xodimlari bilan yuklatilgan vazifalar, kiruvchi xujjatlarni nazorat qilish va tajriba almashish masalalari yuzasidan yo‘riqnoma berish bo‘yicha yig‘ilishlar o‘tkazadi;



xodimlar tomonidan davlat siriga rioya qilinishini hamda bo'limga kiruvchi materiallarni va bo'limdan chiquvchi materiallarning nusxalarini saqlanishini ta'minlaydi;

bo'lim vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini, shu jumladan elektron shaklda kelib tushgan murojaatlarni ko'rib chiqilishini (zarur hollarda jismoniy va yuridik shaxslar ishtirokida) tashkil qiladi, ularda ko'rsatilgan masalalarni hal qilish bo'yicha takliflar tayyorlaydi va boshqarma rahbariyatiga kiritadi;

bo'lim boshlig'i vaqtinchalik bo'lmagan taqdirda uning vazifasini bosh mutaxassis bajaradi.

lavozim yo'riqnomasida nazarda tutilgan vazifa va majburiyatlarni lozim darajada va o'z vaqtida bajarilishi yuzasidan shaxsan javobgar hisoblanadi.

#### **14. bo'lim bosh mutaxassisi:**

funksional vazifalariga muvofiq materiallar, takliflar va hujjatlar loyihalarining sifatli, ishonchli va o'z vaqtida tayyorlanishi uchun shaxsan javob beradi;

statistik va tahliliy ma'lumotlarni to'plash masalalari bo'yicha tarmoq bo'limlari bilan hamkorlik qiladi;

Davlat boshqaruvi organlari uchun axborot, statistik va boshqa ma'lumotlarni tayyorlash ishlarini tashkil qiladi;

statistik to'plamlar, axborotnomalar maketlarining tuzilishi va muqovasini ishlab chiqishni tashkil qiladi;

yig'ma statistik va tahliliy ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida tarmoq bo'limlari uchun jadvallar maketini ishlab chiqadi;

Toshkent shahar hokimligi va boshqaruv organlari uchun axborot, statistik va boshqa ma'lumotlarni tayyorlash ishlarini tashkil qiladi;

Toshkent shahrining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining yakunlari bo'yicha axborot-tahliliy ma'lumotlarni tayyorlash ishlarini amalga oshiradi;

kelib tushgan murojaatlar bilan ishlaydi va bo'lim ish yuritishida ishtirok etadi;

statistik ko'rsatkichlarni ishonchligini, ob'ektivligi, to'liqligi va tizimligini ta'minlashda ishtirok etadi;

statistik ko'rsatkichlarning elektron ma'lumotlar bazasi saqlanishini va asosiy statistik ko'rsatkichlar bo'yicha dinamik qatorlarni yuritadi;

bo'lim mutaxassislari tomonidan ma'lumotnoma, tahliliy, statistik va boshqa materiallarni, shuningdek bo'limga yuklangan vazifalar bo'yicha qonun hujjatlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini sifatli va o'z vaqtida tayyorlanishini tashkil qiladi;

bo'limga yuklangan masalalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Maxkamasining qarorlari hamda Statistika agentligi qaror va buyruqlarini amalga oshirish yuzasidan normativ-huquqiy hujjatlar, tashkiliy chora-tadbirlar yoki nazorat rejalarini tayyorlash va tasdiqlash bo'yicha ishlarini muvofiqlashtiradi;

Statistika ishlari dasturida belgilangan ishlar hajmini baholash uchun zarur bo'lgan materiallarni tayyorlaydi;

Tuman statistika bo'limlarida hisobot va ijro intizomi holatini joylarga chiqqan holda o'rganishni tashkil qiladi, o'rganish natijalari bo'yicha aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilishini va bajarilishini muvofiqlashtiradi;



Bo'lim boshlig'i bilan birgalikda bo'limlar faoliyatini takomillashtirish va Statistika dasturini shakllantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

bo'lim vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha boshqarma tarmoq bo'limlari va tuman statistika bo'limlariga maslaxat yordami ko'rsatadi;

bo'lim faoliyatini tashkil etish va mehnat intizomini mustahkamlash bo'yicha ishlarni mukammallashtirishni tashkil qiladi;

lavozim yo'riqnomasida nazarda tutilgan vazifa va majburiyatlarni lozim darajada va o'z vaqtida bajarilishi yuzasidan shaxsan javobgar hisoblanadi.

#### **15.Bo'lim yetakchi mutaxassislari:**

Funksional vazifalarga muvofiq ma'lumotlar, materiallar, takliflar va hujjat loyihalarilarinig sifatli, ishonchli va o'z vaqtida tayyorlanishi uchun shaxsan javob beradi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarorlari, farmoyishlari va protakol topshiriqlaridan kelib chiqadigan rasmiy statistika sohasida vazifalarini amalga oshirish bo'yicha boshqarma va tuman statistika bo'limlarining takliflarini umumlashtirishda ishtirok etadi;

ish yuritishni olib boradi, bo'limda hujjatlarning o'tish tartibini tashkil qiladi, hujjatlarni arxivda saqlash uchun tayyorlash va o'z vaqtida topshirilishini ta'minlaydi.

davlat boshqaruvi organlari uchun axborot, statistik va boshqa ma'lumotlarni tayyorlash ishlarini tashkil etadi;

yig'ma statistik va tahliliy ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida tarmoq bo'limlari uchun jadvallar maketini ishlab chiqadi;

boshqarmaning tarmoq va tuman statistika bo'limlari tomonidan taqdim etilgan axborotlarni har tomonlama tahlil qiladi, umumlashtiradi va zarur tahliliy ma'lumotlar hamda xulosalar tayyorlaydi;

oylik, choraklik va yillik indikatorlar, to'plami uchun maketlar tayyorlaydi va boshqarmaning tarmoq bo'limlariga tarqatadi va umumlashtiradi;

rahbariyatning topshiriqlariga muvofiq joriy ishlarni bajaradi;

vazifalar taqsimlanishiga muvofiq, boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

lavozim yo'riqnomasida nazarda tutilgan vazifa va majburiyatlarni lozim darajada va o'z vaqtida bajarilishi yuzasidan shaxsan javobgar hisoblanadi.